



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI HAY’ATI MAJLISINING BAYONI

2024 yil «27» dekabr

№ 01-06/04

Toshkent sh.

- Raislik qiluvchi:** A. Sa’dullayev – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori
- Ishtirok etganlar:** O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hay’ati a’zolari, Agentlikning markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari, hududiy boshqarmalari boshliqlari, Yoshlar kelajagimiz jamg‘armasi ijro etuvchi direktori, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti rahbariyati, mas’ul xodimlar, mahallalardagi yoshlar yetakchilari
- Majlis o‘tkazish joyi:** Yoshlar ishlari agentligi ma’naviyat zali, videokonferensaloqa orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar)lardagi studiyalar

Hay’at majlisi raisi kun tartibini muhokamaga qo‘ydi va kun tartibi Hay’at a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

KUN TARTIBI:

**2024-yilda yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini hal etish bo‘yicha
amalga oshirilgan ishlar hamda bu borada kelgusidagi
ustuvor vazifalar to‘g‘risida**

(Sa’dullayev, Kattaxanova, Ablayarov, Muminov, Xolmaxmatov... Sa’dullayev)

Hay’at yig‘ilishida hay’at tarkibining barcha a’zolari ishtirok etayotgani munosabati bilan yig‘ilish vakolatli hisoblanadi.

Hay’atning yig‘ilishida asosiy e’tibor Yoshlar ishlari agentligi tizimida joriy yilda amalga oshirilgan ishlar, muammo va kamchiliklar tanqidiy tahlil qilinib, kelgusidagi ustuvor chora-tadbirlar, xususan, barcha darajadagi rahbar va mas’ul xodimlarning ustuvor vazifalariga qaratildi.

“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da yoshlar masalasiga oid **3 ta** qonun, **21 ta** Prezident Farmoni va qarori, **15 ta** Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilinib, yoshlar uchun **100 dan** ortiq yangi **imkoniyat** va **imtiyozlar** yaratildi.

Joriy yil boshida **9 452 ta** mahallada o‘tkazilgan xatlov orqali **8,3 mln** **“yoshlar balansi”** shakllantirilib, ularning **individual muammosi**, **qiziqishi** va **iqtidoridan** kelib chiqib, qator tizimli ishlar amalga oshirildi.

Birinchidan, Respublika komissiyasi va **Davlat xavfsizlik xizmati** nazorati ostida **377 ming** yoshlarning **“fuqarobay”** ishlab chiqilgan **“Yoshlar bandligi dasturi”** ijrosini ta‘minlash yuzasidan **Shtablar** tashkil etilib, **quyidagi ishlar amalga oshirildi:**

152 ming 742 nafar yoshga dehqonchilik qilishi uchun **“mahalla yettiligi”** tavsiyasi bilan **56 ming gektar** unumdor **yer maydonlari** ajratilib, **2 ta mavsumda 165,4 ming tonna** mahsulot yetishtirildi;

respublika hududlarining **1 tadan** tumanida (**jami 14 ta**) **“Uychi tumani tajribasi”** joriy etilib, **ishsiz** va **norasmiy faoliyatdagi 62,9 ming** yoshlar bandligi ta‘minlandi;

24,2 ming yoshlarga **mehnat qurollari**, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida **112,2 ming** yoshlarga **1 trln 722 mlrd so‘m** imtiyozli **kredit** ajratilib, mahallaning o‘zida bandligi ta‘minlandi;

yoshlarni yuqori daromadli faoliyatga jalb etishga qaratilgan **“Kelajak kasblari”** loyihasi orqali **755 ta xususiy o‘quv markazlari** bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, **25 ming** yoshlarning **56,7 mlrd so‘m** o‘qish xarajatlari to‘lab berildi;

xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarni **tartibli** va **xavfsiz jo‘natish** bo‘yicha hududlarda xatlov o‘tkazilib, **1 291 993 nafar** fuqaroning **“mehnat migratsiyasi balansi”** shakllantirildi;

Ma‘lumot uchun: 974 645 nafar fuqaro xorijda, **260 077 nafari** qaytganligi, **57 271 nafari** chet elda ishlash istagida ekanligi aniqlandi.

Bundan tashqari, hududlarda **“Biznes marafon”** va **“Biznes sayohat”** loyihalari amalga oshirilib, yoshlarning biznes ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan seminarlarda **70 mingga** yaqin yoshlar qamrab olindi.

Natijada **1 889 ta** mahalla **“yoshlar ishsizligidan holi hudud”**ga aylandi.

Ikkinchidan, tarbiyasi og‘ir hamda **ijtimoiy himoyaga muhtoj** yoshlar muammosini hal qilish va hayotda o‘z o‘rnini topishga qaratilgan zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi. **Xususan:**

davlat idoralarining 7 965 nafar respublika-viloyat-tuman rahbarlariga **tarbiyasi og‘ir bo‘lgan 123 ming** yoshlar **nomma-nom** biriktirilib, ularning **barchasi bilan uchrashuvlar** o‘tkazildi va muammosi aniqlangan **76,5 mingga** ko‘mak ko‘rsatildi;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning 17 460 nafar xodimlariga **4 mln** yoshlar **otaliqqa biriktirilib**, ularning **muammolarini hal etish, dunyoqarashini o‘zgartirish** orqali hayotda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashilishi orqali **3,3 mln nafari** bilan natijaga erishildi. **Jumladan:**

barcha biriktirilgan yoshlar bilan suhbatlashilib, **157 772 nafar** muammoli yoshlarning masalalari hal etildi;

331 414 nafar ishsiz va 52 373 nafar xorijdan qaytgan yoshlarning bandligi ta'minlashga ko'maklashildi;

Ma'lumot uchun: 153 mingiga yer, 125 mingiga kredit ajratildi, 63 mingi ish o'rinlariga joylashtirildi, 24 mingi mehnat qurollari berilib, o'zini o'zi band qilindi, 19 mingi zamonaviy kasblarga o'qitildi.

35 530 nafar yosh profilaktik hisobdan chiqarildi, xulq-atvori yaxshilangan 7 883 nafar yosh muddatidan oldin probatsiya hisobidan chiqarildi;

yoshlarning 80 mingi safarbarlik chaqiruvi rezerviga, 25 mingi muddatli harbiy xizmatga yuborildi;

shuningdek, "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi musobaqlarga 1,2 mln, vatanparvarlik oromgohlariga 1,5 mln yoshlar jalb etilib, ijtimoiy faolligi oshirildi;

biriktirilgan yoshlar bilan ishlashda sustkashlikka yo'l qo'ygan 179 nafar xodimga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilib, boshqa xizmatchilarning mas'uliyatini oshirishga erishildi.

Ma'lumot uchun: 30 nafar mudofaa, 15 nafar prokuratura, 53 nafar favqulodda vaziyatlar, 28 nafar ichki ishlar, 31 nafar milliy gvardiya, 13 nafar adliya organlari tizimi xodimlari hamda 9 nafar mahalliy hokimliklar vakillari.

Yoshlar muammolarini hal qilish bo'yicha alohida tizim yaratilib, har haftada vazirliklar, idoralar, tashkilotlar rahbarlari, hududiy hokimliklar, sektor rahbarlarining yoshlar bilan muloqotlarini o'tkazish yo'lga qo'yildi va yoshlar tomonidan ko'tarilgan 75 979 ta muammo ijobiy hal etildi.

Natijada 2 894 ta mahalla "yoshlar jinoyatchiligidan holi hudud"ga aylandi.

***Uchinchidan,* yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi"ni yil davomida o'tkazish amaliyoti joriy etilib, yoshlarning 764 mingi madaniyat-san'at, 5,4 mlni sport, 304,4 mingi Ay-Ti, 1,7 mlni kitobxonlik va intellektual, 201 mingi kasblar yo'nalishlarida tanlov va musobaqalarda ishtirok etdi.**

Xususan, yoshlar o'rtasida futbol bo'yicha "DXX kubogi", kurash bo'yicha "Bosh prokuror kubogi", gandbol bo'yicha "Mahallalar uyushmasi kubogi" musobaqalariga 1,7 mlndan ortiq mahalla yoshlari qamarab olindi.

Olimpiada g'olibligini qo'lga kiritgan yoshlarning mahallasida 969 ta (280 ta "Universal", 444 ta "Stritbol va vorkaut", 245 ta "Vorkaut") sport maydonchalari barpo etildi.

Hududlardagi 342 ta ko'ngilochar ob'ektlar, 251 ta madaniyat va istirohat bog'lari, 213 ta "Yoshlar saylgohlari", 124 ta "Yoshlar ijod ko'chalari", 55 ta "Yoshlar markazlari", Toshkent shahrida "Zakovat arenasi", "Kreativ park", Jizzax shahrida "Kibersport arenasi" barpo etilib, "Ma'naviyat festivallari", "Chilla – iste'dodlar mavsumi!" kabi tadbirlarda 4,2 mlnga yaqin yoshlar qamrab olindi.

Shuningdek, ta'lim muassasalaridagi 9 mingga yaqin sport ob'ektlari va 10 103 ta kutubxona soat 16:00 dan 23:00 ga qadar mahalla yoshlari uchun erkin foydalanishga berilib, 1,5 mln nafardan ortiq yoshlar jalb etildi.

***To'rtinchidan,* yoshlarning iqtidori, g'oya va tashabbusini qo'llab-quvvatlash maqsadida Toshkent shahridagi "Yoshlar ijod saroyi"da namunaviy "Kreativ park" tashkil etilib, unda "Qizlar akademiyasi", "Animatsiya maktabi", "Ibrat farzandlari" loyihalari, "Fitrat media", "Yosh dizaynerlar klubi", "Volontyorlar maktabi", "Kulolchilik akademiyasi" faoliyati yo'lga qo'yildi (hozirga qadar 1 mlnga yaqin yoshlarning iste'dodlari qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda);**

Yosh xotin-qizlarni **tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn, huquq va zamonaviy kasblarga** o'rgatish uchun **“Qizlar akademiyasi”** loyihasi yo'lga qo'yilib, **240 ta** qo'llanma tayyorlandi va ijtimoiy tarmoqlar orqali **220 ming** xotin-qizlar qamrab olindi;

O'zbek milliy qahramonlari obrazini yaratish orqali **qadriyatlar, odob-axloq qoidalari** singdirilgan **“Bek va Lola”**, buyuk ajdodlarimiz obrazi orqali ustozlarni ulug'lash, ta'lim olishga intilishning sodda va zamonaviy uslublarini targ'ib qilishga qaratilgan **“Beruniy sarguzashtlari”**, tabiatni asrash, **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi g'oyalari asosida **“Yashil makon” animatsion multfilmlari brendi** yaratilib, ijtimoiy tarmoqlarda **20 mln** marotaba ko'rildi;

Yoshlarni **xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish** orqali **“Ibrat farzandlari”** loyihasi doirasida **1,4 mlndan** ortiq yoshlar **23 ta** xorijiy tillarni, **“Ustoz AI”** loyihasi doirasida **250 ming** yoshlar **10 ga yaqin** zamonaviy kasblarni **onlayn** o'rganmoqda;

Xorijiy tillar bo'yicha **xalqaro imtihon tizimlaridan C1 darajasidagi** sertifikatga ega bo'lgan **39 ming** yoshlarga **72,3 mlrd** so'm (*shundan, 2024 yilda 16 ming yoshlarga 31,9 mlrd so'm*) imtihon topshirish xarajatlari qoplab berildi;

Kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida **“Yosh kitobxon”** tanlovi orqali **912 mingdan** ortiq, **“Mutolaa”** loyihasi orqali **1,4 mln** yoshlar qamrab olinib, loyiha doirasida **1 ming 667 ta audio** va **1 ming 947 ta elektron** kitoblar yaratildi. Bugungi kunda loyiha orqali **4 mln 631 mingta** kitob o'qilmoqda;

Uyg'onish davri allomalari haqida **“Uyg'onish” (140 ming nusxa)**, **ma'rifatparvar jadidlar** to'g'risida **“Jadidlar” (184 ming nusxa)** to'plamlari nashr etilib, ta'lim muassasalari va kutubxonalarga yetkazildi.

Beshinchidan, joriy yilda amalga oshirilgan ishlar **sarhisobi** hamda **2025 yildagi** ustuvor vazifalar muhokamasiga qaratilgan **50 ga** yaqin yirik **tadbir** va **loyihalardan** iborat **“O'zbekiston yoshlar forumi”** tashkil etilib, **1,5 mln ortiq** yoshlar qamrab olindi.

Ma'lumot uchun: yoshlar forum doirasida **“I O'quv markazlari forumi”**, mahalladagi yoshlar yetakchilari, yosh dehqonlar forumlari, **“Rahbar va yoshlar”** uchrashuvlari, rassomchilik, kitobxonlik, intellektual tanlovlar, **“Ustoz AI”**, **“UzChess”**, **“Ibrat farzandlari”**, **“TOP 100 Uni”**, **“Mutolaa”** **“Qizlar akademiyasi”** loyihalari taqdimotlari, **“Toshkent – MDH yoshlar poytaxti”**, **Xalqaro volontyorlar forumi**, shular jumlasidan.

Shu bilan birga, ayrim **muammo va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilganligi tanqidiy muhokama qilindi:**

Shundan so'ng, Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari D. Kattaxanova, direktor o'rinbosarlari F. Ablayarov hamda A. Muminov, hududiy boshqarma va tuman (shahar) bo'lim boshliqlarining hisoboti eshitildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan ma'ruza hamda bildirilgan fikr va mulohazalar asosida Yoshlar bilan ishlash borasida 2025-yildagi ustuvor vazifalar to'g'risida Yoshlar ishlari agentligi hay'ati

QAROR QILADI:

1. Yoshlar ishlari agentligi direktori birinchi o'rinbosari D. Kattaxanovanning **“2024-yilda yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini hal etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda bu borada kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risida”gi** axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bolalar, xotin-qizlar, ta'limdagi yoshlarni, volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ekologik diplomatiya boshqarmasi (Ataxanov) xorijiy tillarni o'rganishni yanada kengaytirish maqsadida xorijiy tilni **B-2 darajasida** biladigan **100 ming** yoshlarni tayyorlash bo'yicha **"2+6" dasturini** joriy etilsin.

3. Axborot xizmati (Abduqodirov) milliy kontentni rivojlantirishga qaratilgan **"Bek va Lola", "Beruniy sarguzashtlari", "Yashil makon", "Al-Xorazmiy"** kabi animatsion multfilmlarni ommalashtirish choralari ko'rsin.

4. Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish bo'limi (Amreyeva), Agentlikning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari 10 kun muddatda 384 ming yoshlarni bandligini ta'minlash bo'yicha **yoshlar bandligini ta'minlash dasturini** ishlab chiqsin.

5. Agentlikning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari "Tashabbusli budget" loyihasida mahallalardagi yoshlar yetakchilari imkoniyatidan foydalanib, targ'ibot ishlarini tashkil etish orqali yoshlar infratuzilmalarini rivojlantirish choralari ko'rsin.

6. Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish bo'limi (Amreyeva) Oliy ta'lim muassasalarining iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan **"Work and travel" dasturi** asosida **2 ming nafar** talabani xorijiy davlatlarga yuborish tartibini ishlab chiqsin.

7. Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi (Islomov), Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari bilan birgalikda:

- mahallalardagi yoshlarning bo'sh vatlarini mazmunli tashkil etish, to'garaklar, maktablardagi kutubxonalar, sport zallari faoliyati, yoshlarga yaratilgan infratuzilmalar faoliyatini tahlil qilib, bu boradagi faoliyatni rivojlantirish;

- besh tashabbus olimpiadasi 2025-yilgi mavsumini loyiha va tanlovlarni yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish choralari ko'rsin.

8. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo'limi (A.Alimov) Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari bilan birgalikda "Jasorat maktabi" o'quv-yig'inida ishtirok etgan yoshlarning keyingi hayoti, ularning bandligi, jinoyat ko'chasiga kirmasliklari uchun bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilayotgani yuzasidan doimiy monitoring olib borsin.

9. Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari agentlikdan yuborilayotgan barcha turdagi xat-hujjatlarning bajarilishi, nomenklatura hujjatlari yuritilishi, ijro intizomi bo'yicha viloyat apparati hamda tuman (shahar) bo'limlari xodimlari ishtirokida tanqidiy yig'ilish o'tkazsin hamda yig'ilish natijalari yuzasidan Yoshlar ishlari agentligiga ma'lumot taqdim etsin.

10. Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S. Xamdamov) Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari bilan birgalikda tizimdagi kadrlar qo'nimsizligi sabablarini chuqur tahlil qilsin hamda yuqori malakali kadrlar zahirasi shakllantirish va ularni tizimga jalb qilish choralari ko'rsin.

11. Moliya-iqtisod bo'limi (J.Rasulov)ga hududlarga ajratilgan mablag'larni maqsadli va asosli sarflanishi yuzasidan o'rganish, nazorat-taftish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

12. Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (B.Aliboyev) Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari bilan birgalikda tizimdagi yoshlar yetakchilari lavozimiga qo'yish va ozod qilish masalalariga hududlardagi Kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassislarni mas'ul etib belgilasin.

13. Davlat xaridlarini tashkil etish va xo'jalik bo'limi (I. Ziyodulloev) Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari bilan birgalikda **15 kun muddatda** hududlardagi mavjud "Yoshlar markaz"lari faoliyatini qayta ko'rib chiqib, kelgusida barpo etilishi belgilangan markazlar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda qurilish ishlari bo'yicha tahliliy ma'lumot kiritсин.

14. Mazkur bayon ijrosini nazorat qilish Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari D. Kattaxanova, Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i S. Xamdamov, Axborot-tahlil va ijro nazorati bo'limi boshlig'i Q. Bobokulov zimmasiga yuklansin hamda **har oy yakunida** Hay'at bayoni ijrosi yuzasidan Agentlik direktoriga axborot kiritib borilsin.

**Yoshlar ishlari agentligi
direktori**



A. Sa'dullayev